

MILLIY TARBIYANING OILAVIY QADRIYATLARGA TRANSFORMATSIYASINING PSIXOLOGIK METADOLOGIK ASOSLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-549-557>

Jabborov Xazrat Xusenovich

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)*

xxjabborov@mail.ru ORCID 0000-0002-0722-8265

Xudoyberganova Zilola Akmaljon qizi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Psixologiya yoʻnalishi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy tarbiyaning oilaviy qadriyatlarga transformatsiyasining psixologik va metodologik asoslari tahlil etiladi. Unda oilaviy muhitda shakllanadigan axloqiy-meʼyoriy qadriyatlarning shaxs psixik rivojiga taʼsiri, milliy tarbiya jarayonidagi oʻrni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, milliy tarbiyani oilaviy qadriyatlar bilan uygʻunlashtirishning metodologik yondashuvlari, psixologik mexanizmlari hamda tarbiyaviy samaradorlikni oshirish omillari koʻrib chiqiladi. Tadqiqot natijalari oilada va taʼlim muassasalarida milliy tarbiyani takomillashtirish, yosh avlodda milliy oʻzlikni anglash, ijtimoiy masʼuliyat va maʼnaviy barqarorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: oilaviy qadriyat, tarbiya, fazilat, axloq, milliy tarbiya, milliy xarakter, gʻoya, mafkura, transformatsiya

Аннотация. В статье анализируются психологические и методологические основы трансформации национального воспитания в систему семейных ценностей. С научно-теоретической точки зрения раскрывается влияние нравственно-нормативных ценностей, формирующихся в семейной среде, на психическое развитие личности, а также их роль и значение в процессе национального воспитания. Рассматриваются методологические подходы к гармонизации национального воспитания и семейных ценностей, психологические механизмы и факторы повышения воспитательной эффективности. Результаты исследования направлены на совершенствование национального воспитания в семье и образовательных учреждениях, формирование национального самосознания, социальной ответственности и духовной устойчивости у молодого поколения.

Ключевые слова: семейные ценности, воспитание, добродетель, нравственность, национальное воспитание, национальный характер, идея, идеология, трансформация.

Abstract. This article examines the psychological and methodological foundations of transforming national education into a system of family values. It provides a scientific and theoretical analysis of the influence of moral and normative values formed within the family environment on individual psychological development, as well as their role and significance in the process of national education. The study also explores methodological approaches to harmonizing national education with family values, psychological mechanisms, and factors that enhance educational effectiveness. The findings contribute to the improvement of national education in families and educational institutions and support the development of national identity, social responsibility, and spiritual stability among the younger generation.

Keywords: family values, education, virtue, morality, national education, national character, idea, ideology, transformation.

Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida milliy tarbiya tizimi yangi ijtimoiy-psixologik chaqiriqlarga duch kelmoqda. Turli madaniy oqimlar, axborot vositalari va g‘oyaviy ta’sirlarning kuchayishi natijasida yosh avlod ongida qadriyatlar tizimining o‘zgarishi kuzatilmoqda. Shu jarayonda milliy tarbiyaning asosiy tayanchi bo‘lgan oilaviy qadriyatlarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyatini qayta anglash, ularni milliy tarbiya bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Oila shaxs kamolotining birlamchi va muhim ijtimoiy institutidir. Aynan oilada bolaning axloqiy fazilatlari, milliy o‘zligi, ijtimoiy xulq-atvori, ma’naviy dunyosi va psixologik barqarorligi shakllanadi. Biroq zamonaviy ijtimoiy sharoitda ayrim oilalarda tarbiyaviy izchillikning susayishi, milliy qadriyatlarga e’tiborning kamayishi milliy tarbiya samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu holat milliy tarbiyaning oilaviy qadriyatlarga transformatsiyasini ilmiy asosda o‘rganishni taqozo etadi.

Mazkur mavzuning psixologik dolzarbligi shundaki, oilaviy qadriyatlar orqali milliy tarbiyaning shaxs ongiga singdirilishi shaxsning motivatsion sohasi, emotsional-irodaviy barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va milliy identifikatsiya jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. Metodologik jihatdan esa oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi tarbiyaviy hamkorlikni mustahkamlash, milliy tarbiya mazmunini oilaviy qadriyatlar asosida qayta tizimlashtirish va samarali tarbiyaviy yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli milliy tarbiyaning oilaviy qadriyatlarga transformatsiyasining psixologik va metodologik asoslarini tadqiq etish yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy mas’uliyat, ma’naviy yetuklik va psixologik barqarorlikni shakllantirishga xizmat qiladi hamda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Milliy tarbiya — xalqning tarixiy tajribasi, qadriyati, ma’naviy-axloqiy tamoyillari asosida avloddan-avlodga o‘tadigan tarbiyaviy jarayon bo‘lib, u shaxsning ijtimoiy yetuklikka erishishini ta’minlashga qaratilgan murakkab psixologik va madaniy tizimdir. O‘zbekistonda milliy tarbiya tizimi mustaqillikdan so‘ng yangicha metodologik asosda qayta talqin qilinib, ma’naviyat, milliy g‘oya va shaxsning psixologik rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik markazga chiqarildi.

O‘zbek milliy tarbiyasi metodologiyasi Sharq antropologiyasi va xalq pedagogikasiga tayangan holda shakllangan. Uning nazariy ildizlari jadidchilik merosi, A.Avloniy, A.Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi ma’rifatparvarlarning tarbiya haqidagi g‘oyalariga borib taqaladi. Mazkur konsepsiyada inson komilligi faqat bilim bilan emas, balki “ma’naviy uyg‘oqlik” bilan belgilanadi.

Masalaga daxldor tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili milliy tarbiyaning metodologik asoslari uch darajada namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi:

■ Falsafiy-dunyoviy asos — inson mohiyatini ezgulikka yo‘naltiruvchi dunyoqarash tizimi;

▪ Ijtimoiy-madaniy asos — mahalla, urf-odatlar, marosimlar orqali shakllanuvchi ijtimoiy psixologiya;

▪ Psixologik asos — shaxsda or-nomus, g‘urur, hurmat va mas’uliyat kabi hissiy-axloqiy mexanizmlarning uyg‘unlashuvi.

Milliy tarbiya, avvalo, shaxsning ichki dunyosini boshqaruvchi ma’naviy-hissiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. U shaxsni faqat tashqi xulq me’yorlariga moslashishga emas, balki “ichki ongni tarbiyalash” tamoyiliga asoslanadi. O‘zbek mentalitetida tarbiya jarayoni nafaqat buyruq yoki nazorat orqali, balki uyat hissi, or-nomus, ma’naviy mas’uliyat kabi psixologik boshqaruv mexanizmlari orqali amalga oshadi.

Psixologik nuqtai nazardan milliy tarbiya quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

▪ Identifikatsion funksiya — shaxsning “men kimman?” degan savolga milliy-madaniy javob topishi;

▪ Regulyativ funksiya — xulqni ijtimoiy me’yorlar asosida ichki nazoratga olish;

▪ Motivatsion funksiya — ezgulik, vatanparvarlik, hurmat, fidoyilik kabi qadriyatlarga intilishni kuchaytirish;

▪ Emotsional stabilizatsiya — oilaviy va jamoaviy qo‘llab-quvvatlash muhitida ruhiy muvozanatni ta’minlash.

O‘zbek psixologiyasi nuqtai nazaridan, milliy tarbiya jarayonida majburiylik emas — ichki ixtiyorlilik va axloqiy uyat hissi ustuvor o‘rinda turadi. Bu esa uning g‘arb pedagogikasidan tub farqini tashkil etadi. Bugungi globallashuv va vertuallashuv davri xalqlar orasida o‘ziga xos madaniy uyg‘unlashuvni yuzaga keltirmoqda. Bu holat albatta umuminsoniy g‘oyalarni kuchaytirishi bilan bir qatorda, millatlarning o‘ziga xosligini kamaytiruvchi ijtimoiy psixologik xodisalardan biri hisoblanadi. Shu bois hozirgi kunda har bir millatlarda kuzatilayotgan bir tendensiya ko‘zga tashlanmoqda, ya’ni har bir millat va xalqlar o‘z yoshlarida milliy fazilatlar asosida milliy xarakterini, milliy o‘zligini asrab qolishga qaratilgan ta’sirchan texnologiyalardan foydalanayotir. Mazkur masala bo‘yicha davlat dasturlari, konsepsiyalar, qarorlar, farmonlar qabul qilinayotir. Demak bu jarayonlardan shuni anglash mumkinki, har bir millat o‘zligini asrab qolishga, millat sifatida yashab qolishi, xalq sifatida esa o‘zining etnopsixologik, etnopedagogik qadriyat va an’analarni kuchaytirishi zarur bo‘ladi[5].

Milliy tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik omillari haqida gap ketganda beixtiyor taniqli o‘zbek ma’rifatparvari Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlari inson e’tiborini tortadi [2, s.108-118]. Buni isbotini bugungi kunda ijtimoiy fanlarda inson omili va uning ijtimoiy-psixologik jihatlari bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar olib borishga talab va extiyojni oshganligi bilan ham izohlash mumkin. Mazkur tadqiqotlarning aksariyat qismida shaxsning barkamolligi, ma’naviy yetukligi yoki aksincha axloqiy tanazzulning asosiy omillari bo‘yicha juda qiziqarli empirik ma’lutolar qo‘lga kiritilmoqda, lekin bularning

ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e'tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati insoniyat uchun juda katta ma'naviy tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya'ni tarbiya masalasiga e'tiborsizlik illati millatlarning axloqiy tannazulining asosi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi.

Shuning uchun biz mazkur maqolamizda yoshlarda ijobiy fazilatlarni tarbiyalashni metodologik jihatlarini, yoshlarni milliy tarbiya masalasiga munosabatlari hamda hamda milliy tarbiya metodlarini tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratdik[6].

Mazkur masalani dolzarbligini 2019 yil 31 dekabrda qabul qilingan “Uzluksiz ma'naviy tarbiya” konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 1059-son qarori bilan ham izohlash mumkin. Mazkur konsepsiyada bugungi yoshlarimizning shaxsiy va ijtimoiy farovon, baxtli hayot qura olishlari uchun zarur bo'lgan aniq fazilatlar majmui belgilab berildi.

Bu haqda Qarorning 2-bandida Konsepsiya va uni amalga oshirish chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yunalishlaridan biri etib “Yoshlarda Vatanga sadokat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish” [1] ta'kidlangan.


Bu davlatimizning yoshlar tarbiyasiga yondashishda maqsadli innovasion yondoshuv bo'lib, tarbiya jarayonini ilmiy asosga qurilishini va milliy tarbiya masalasida uning ijtimoiy-psixologik indikatorlari ishlab chiqishimizni talab qiladi.

Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash ketayotgan bir vaqtda, eng katta sarmoya farzandni yaxshi ta'lim va tarbiyasiga tiktikilayotganligi bu albatta yaxshi holat hisoblanadi [7].

Bugungi zamon va makon shaxsning eng asosiy ichki resurslaridan biri bo'lgan tarbiya masalasiga, yangicha talablarni qo'yayotgani biz soha vakllarini doim diqqat markazimizda bo'lishiligi lozim. Zero, shiddati vertualashish jarayoni kuchaytgan bir davrda ta'lim-tarbiya masalasiga aniq, ilmiy asoslarga, qat'iy talablar bilan yondashish juda muhim ijtimoiy-psixologik omillardan biri hisoblanadi.


Biz maqolamiz uchun yoshlarni milliy tarbiya masalasiga munosabatlari va daxldorlik darajalarini bilish uchun ijtimoiy-psixologik so'rovnomaga o'tkazdik, ularni tahlili qildik va quyidagicha empirik ma'lumotlarni qo'lshga kiritdik.

Talabalarga “Sizdagi tarbiyaning shakllanishiga ko'proq qaysi omil ta'sir ko'rsatgan?” degan savolga quyidagicha empirik natijalar qo'lga kiritildi.




Yuqoridagi natijalardan ko‘rinib turibdiki bugunki kunda yoshlar tarbiyasini shakllanishida eng ko‘p ta’sir omili bu ommaviy axborot vositalari (40%) ekan. Keyingi ta’sir omillarini oila (27%), ta’lim (18%), mahalla (15%) tashkil etgan. Demak biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha targ‘ibot ishlarini ommaviy axborot vositalarida kuchaytirishimiz maqsadga muvofiq ekan.

Talabalarga “Sizda shakllangan xarakter va fazilatlarni ko‘proq qismini kimdan o‘rgangansiz?” degan savolga quyidagicha empirik natijalar qo‘lga kiritildi.




Demak yoshlar tarbiya ishlarida otaning (60%) roli va o‘rnini ko‘proq yo‘qlashdsh. Demak oilada farzand tarbiyasi bo‘yicha targ‘ibot ishlarida otaning tarbiya ishlar bilan shug‘ulanishi bo‘yicha ko‘rsatmalarni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Keyingi savol “Sizningcha tarbiya nechi yoshdan boshlab shakllanadi?” deb nomlandi va quyidagicha natijalar qo‘lga kiritildi.




Respondentlarning 60% ona qorniligidan, 22% 3 yoshdan va 18% aniq bilmayman degan javobni bergan. Bizni tarbiya borasidagi ishlarimizni kengaytirish joylarini aynan 18% respondent aniq bilmayman degan javob ko'rsatib berdi. Qolaversa talabalarning 22% ham tarbiyani 3 yoshdan boshlanadi deb javob berishyapti bu ham xavotirli javob aslida. Chunki tarbiya ishlariga 3 yil kechikilyapti.

Navbatdagi savol “Sizningcha tarbiyada kimlarni roli ko‘proq bo‘lishi kerak?” dagan ma'noda bo‘ldi va quyidagicha natijalar qo‘lga kiritildi.




Yuqoridagi natijalardan ko‘rinib turibdiki, tarbiyada ota-onaning roli ko‘proq ekan. Shunday ekan jamiyatda milliy tarbiya masalasida, oilada farzand tarbiya masalasida ota-onaning roldan unumli foydalanish kerak. Ota-onalarni tarbiyaning milliy va zamonaviy metodlari bilan ta'minlash kerak. Mahallalarda maqsadli va manzilli seminar-treninglar tashkil etib ota-onalarni tarbiya metodlari bo'yicha bilimlarni oshirish maqsadga muvofiq.

Navbatdagi savol “Milliy tarbiyani ko‘proq nimlardan o‘rganasiz?” ma'nosida berildi va quyidagicha natijalar qo‘lga kiritildi.



Yoshlarimiz milliy tarbiyani eng ko‘proq jamiyatdan (50%) o‘rganishayotgan ekan. Demak tarbiya ishlarida jamiyatimizda jamaotchilik nazoratini kuchaytirishimiz kerak ekan.

“Ota-onalaringizni sizga yaxshi tarbiya berishi uchun nima halaqit berayapti deb o‘ylaysiz?” deb berilgan savoliga quyidagicha javob beroishdi.



“Ota-onalaringizni sizga yaxshi tarbiya berishi uchun nima halaqit berayapti deb o‘ylaysiz?” deb berilgan savoliga 28% ota-onalar tarbiya metodlarini yaxshi bilmaydi, 18%i tarbiyadagi oilaning mas'uliyatini anglamaydi deb, 22% i farzandi bilan muloqot qilmasligi deb javob berishgan bo‘lsa 32%i mazkur savolga bilmayman deb javob bergan, bu ko‘rsatkichlar ota-onalarning farzand tarbiyasiga e'tibor borasida masalani jiddiy o‘ylab ko‘rishlarini taqazo qiladi.

Navbatdani savollar “Ota-onangiz siz bilan tarbiya mavzusiga bir kunda qancha vaqt ajratadi?” deb nomlandi.

Tekshiriluvchilarni 58% bir kunda ota-onasini tarbiya mavzusiga 5-10 minut ajratishlarini ta'kidlashgan, 20% 15-30 minut va eng og‘riqligi 12% bir hafta davomida 10-15 minut suxbatlashiladi va yana 10% tekshiriluvchilar tarbiyasizlik qilib qo‘ygan vaziyatlarimda bu mavzuga vaqt ajratiladi deb javob berilgan. Dkmak yuqoridagi ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki ota-onalarimiz o‘z farzandlariga ko‘proq vaqt ajratishlari maqsadga muvofiq. Zero bu tahlikali va ochiq axbort

asrida bizni farzandalarimizga tarbiya beradigan buzg‘unchi va vayronkorlik ruhidagi muxolifatlar ham yo‘q emas[8].

Yuqoridagi empirik natijalarda tarbiya ishlari va metodikasi bilan bog‘liq ishlarimizgi nisbatan e’tiborsizlik holatlari yaqqol ko‘zga tashlandi. Zero buyuk vatandoshimiz Imom G‘azzoliy quyidagi fikrlaridan ham bilishimiz mumkin, ya’ni mutafakkirimizni ta’kidlashicha “Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o‘rgatilsa, shu bilan o‘sadi va dunyo-yu oxiratta saodatga erishadi. Uning sa-vobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo‘ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, oxir-oqibat halok bo‘ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lganlarning gardaniga tushadi”.

Bugungi kunda yoshlarni axloqiy masalalariga e’tiborsizlik yer yuzida qanchadan-qancha ma’naviy tahdid va illatlatlarni keltirib chiqarayotganligi hech kimga sir emas[9].

Yuqoridagi so‘rovnomalardan ayon bo‘ldiki, ota-onalar farzand tarbiyasida ma’rifatli bo‘lishlari talab etiladi, zero bugun har bir ota-ona pedagog bo‘lishi lozim tarbiya metodlarini puxta o‘zlashtirmog‘i lozim, chunki farzand ta’lim-tarbiyasiga tikilgan sarmoya eng foydali va eng kafolatli sarmoyadir[3, c.320].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy tarbiyaning oilaviy qadriyatlarga transformatsiyasi shaxs kamolotini ta’minlashda muhim psixologik va metodologik ahamiyatga ega. Oila muhitida shakllanadigan axloqiy-me’yoriy qadriyatlar shaxsning psixik rivoji, ijtimoiy moslashuvi va milliy o‘zligini anglash jarayonining poydevorini tashkil etadi. Shu bois milliy tarbiyaning samaradorligi ko‘p jihatdan oilaviy qadriyatlarning mazmuni va tarbiyaviy uzviyligiga bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, milliy tarbiyaning oilaviy qadriyatlarga transformatsiyasi shaxsning motivatsion sohasi, emotsional-irodaviy barqarorligi hamda ijtimoiy xulq-atvorining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon psixologik mexanizmlar — identifikatsiya, taqlid, ichkilashtirish (interiorizatsiya) va emotsional bog‘liqlik orqali amalga oshadi. Mazkur mexanizmlar orqali milliy qadriyatlar shaxs ongiga chuqur singib, barqaror ma’naviy fazilatlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodologik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, milliy tarbiyani oilaviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishda tizimli, uzviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, milliy tarbiya mazmunini oilaviy qadriyatlar asosida qayta tizimlashtirish hamda zamonaviy pedagogik-psixologik metodlardan samarali foydalanish tarbiyaviy jarayonning natijadorligini oshiradi.

Umuman olganda, tadqiqot xulosalari milliy tarbiyaning oilaviy qadriyatlarga transformatsiyasini ilmiy asosda tashkil etish yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy mas’uliyat, ma’naviy yetuklik va psixologik barqarorlikni shakllantirishga

xizmat qilishini tasdiqlaydi hamda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabr 1059-sonli Qarori.
2. X.Jabborov. “Milliy tarbiya - ijtimoiy-psixologik, qonuniy va ob'ektiv jarayon sifatida”. Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya. ISSN: 2181-1776. “Bilig – ilmiy faoliyat” nashri <http://bilig.academiascience.or>. Jild: 03 | nashr: 02 | fevral 2022. 108-118
3. M.Quronov. “Bolam baxtli bo'lsin desangiz...” Toshkent «Ma'naviyat» 2013. 320 b.
4. Jabborov Xazrat Xusenovich. [Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari](#). Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-1-209-219>.
5. Jabborov X.X. “O'smirda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.
6. Жабборов Хазрат Хусенович. [Психологические особенности идеологического влияния “массовой культуры” на человеческий разум](#). СОЦИАЛЬНЫЙ ПСИХОЛОГ журнал для психологов. Основан в 2000 году в Ярославль. 2016 №2 (32). -С. 56-66.
7. Жабборов Хазрат Хусенович. [The influence of psychological protective mechanisms in the formation of the ideological immunity in adolescents](#). European journal of psychological research vol. 4 No.1, 2017 ISSN 2057-4794.
8. Jabborov Kh.Kh.. The study of the problem of national education by eastern thinkers. International Journal of Pedagogics (ISSN – 2771-2281) VOLUME 03 ISSUE 02 Pages: 14-20 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) (2023: 6. 676) OCLC – 1121105677/ Online Link:- <http://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/765>
9. Khazrat H. Jabborov. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FACTORS IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION International Journal of Mechanical Engineering. ISSN: 0974-5823. Vol. 7 No. 2 February, 2022 –B 1838-1843.